



ROLE OF AFGHANISTAN IN IRAN'S FOREIGN POLICY

Sherzodbek Maksudbekovich Nurmetov

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Azlarkhan B. Achilov

Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Taliban, Fatimiyun, Iran's Islamic Revolutionary Corps (IRGC), ISIS, Al-Qaeda, Middle East, Helmand.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

Abstract: Afghanistan plays an important role in Iran's foreign policy due to its shared borders, historical ties, security concerns and economic interests. Afghanistan is important to Iran on various dimensions that affect Iran's foreign policy and regional strategy. Based on its geopolitical, geocultural and geoeconomic capabilities, Iran as one of the actors that can play a decisive role and influence the influence of other countries on this country, in addition to directly affecting Afghanistan, is considered. For this reason, it is important for Iran to support or oppose regional and international alliances regarding the future of Afghanistan and the challenges posed by the ongoing instability following the Taliban's return to power.

ERON TASHQI SIYOSATIDA AFG‘ONISTONNING O‘RNI

Sherzodbek Maxsudbekovich Nurmetov

Talaba

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Azlarxon B. Achilov

O‘qituvchi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Tolibon, Fotimiyun, Eron Islom Inqilobi Korpusi (EIHK), IShID, Al-Qoida, Yaqin Sharq, Hilmand.

Annotatsiya: Afgʻoniston umumiy chegaralari, tarixiy aloqalari, xavfsizlik tashvishlari va iqtisodiy manfaatlari tufayli Eronning tashqi siyosatida muhim rol oʻynaydi. Afgʻoniston Eronning tashqi siyosati va mintaqaviy strategiyasiga taʼsir koʻrsatadigan turli oʻlchovlarda Eron uchun muhim ahamiyatga ega. Eron oʻzining geosiyosiy, geomadaniy va geoiqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, Afgʻonistonga bevosita taʼsir qilishdan tashqari, hal qiluvchi roʻl oʻynashi va boshqa davlatlarning ushbu mamlakatga taʼsiriga taʼsir qilishi mumkin boʻlgan aktorlardan biri sifatida qaraladi. Shu sababdan Eronning Afgʻoniston kelajagi va Tolibonning qaytadan hokimiyat tepasiga kelishi ortidan davom etayotgan beqarorlik tufayli yuzaga kelgan muammolar borasida mintaqaviy va xalqaro ittifoqlarni qoʻllab-quvvatlashi yoki ularga qarshi chiqishi muhim.

РОЛЬ АФГАНИСТАНА ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ИРАНА

Шерзодбек Максудбекович Нурметов

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Азлархан Б. Ачилов

преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Талибан, Фатимиян, Корпус исламской революции Ирана (КСИР), ИГИЛ, Аль-Каида, Ближний Восток, Гильменд.

Аннотация: Афганистан играет важную роль во внешней политике Ирана из-за его общих границ, исторических связей, проблем безопасности и экономических интересов. Афганистан важен для Ирана по различным аспектам, которые влияют на внешнюю политику и региональную стратегию Ирана. Исходя из своих геополитических, геокультурных и геоэкономических возможностей, Иран рассматривается как один из акторов, способных сыграть решающую роль и повлиять на влияние других стран на эту страну, помимо непосредственного воздействия на Афганистан. По этой причине для Ирана важно поддерживать или противостоять региональным и

международным альянсам в отношении
будущего Афганистана и проблем,
создаваемых продолжающейся
нестабильностью после возвращения
Талибана к власти.

KIRISH

Eron Afg'oniston bilan 950 kilometrlik suv va quruqlik chegarasiga ega va dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mamlakatni ochiq suvlar bilan bog'laydigan eng qisqa va xavfsiz yo'l sanaladi. Eronning Afg'onistondagi kuchli ta'sirini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar fors tilida so'zlashuvchi musulmon aholining ko'pchiligi, xususan, ozchilik hazoralar bilan uzoq yillik til, diniy va konfessiyaviy aloqalar, sovet harbiylari davrida mujohid partiyalari va guruhlarini qo'llab-quvvatlash tajribasi va bu mamlakatning aksariyat etnik, diniy va siyosiy elitasi bilan aloqalarning mavjudligi.

ASOSIY QISM

Avvalo Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarga nazar solsak. 2023-yil 4-noyabr kuni Eronga tashrif buyurgan Afg'oniston iqtisodiy delegatsiyasi Eron vitse-prezidenti Muhammad Moxber, tashqi ishlar vaziri Husayn Amir-Abdullaxon, ichki ishlar vaziri Ahmad Vohidiy va Eron Milliy xavfsizlik oliy kengashi kotibi Ali Akbar bilan uchrashdi. Uchrashuvda iqtisodiy muhokamalar o'tkazilib, Eron va Afg'oniston o'rtasida transport, fuqaro aviatsiyasi, tog'-kon sanoati va erkin savdo zonalari bo'yicha beshta iqtisodiy hamkorlik bitimi imzolandi. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi respublika tuzumi qulagunga qadar 2,5milliard dollardan oshdi va davom etayotgan beqarorlikka qaramay, tegishli temir yo'l va tranzit tarmog'ining mavjudligi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda. Shuningdek, Eronning Chobahor porti Kobulga eng yaqin dengiz yo'llariga chiqish imkonini beradi. "Chobahor" erkin zonasida ro'yxatdan o'tgan 500 ta kompaniyaning 165 tasini Afg'on savdogarlari tashkil qiladi. [1] Bundan tashqari, xalqaro sanksiyalardan ozod qilingan va ko'plab sarmoyadorlarni o'ziga jalb etuvchi Chobahor erkin zonasi salohiyatidan foydalanishga, shu orqali Eron va Afg'oniston o'rtasidagi savdo aloqalarini kuchaytirishga e'tibor kuchaymoqda. 2023-yilning 9-noyabr kuni Tolibon bosh vazir o'rinbosari Eronning Chobahor portida Eronning asosiy rasmiylari bilan uchrashdi va Eron hukumatini Afg'onistonga Chobahor portida uzoq muddatga munosib xarajat evaziga yer ajratishga chaqirdi. Ushbu infratuzilma orqali Afg'onistonning import va eksport imkoniyatlari va Afg'onistonning tranzit salohiyatini oshiradi. Uchrashuv yakunlari bo'yicha Afg'onistonga Chobahor portiga cheklovsiz kirish huquqini beruvchi o'zaro kelishuvga erishildi, bu esa Eronning xalqaro tranzit markazi sifatida strategik joylashuvini yana bir bor tasdiqlaydi. [2] Tolibon hukumati tan olinmaganiga qaramay, Eron Afg'onistonning yoqilg'i, energiya va ayrim kichik infratuzilma va sanoat

loyihalarini yakunlash uchun iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda davom etmoqda. Afg'oniston xalqi oziq-ovqat, tibbiy va ta'lim xizmatlarini olish orqali Eron bilan ham yaxshi munosabatlarga ega. Afg'oniston bozori Eron mahsulotlari uchun kichik bo'lsa-da, boshqa davlatlarga, jumladan O'zbekiston va Tojikistonga tranzit yo'llari tufayli Afg'oniston orqali eksport qilish Eron uchun tejamkor bo'ladi. Geosiyosiy, geomadaniy va geoiqtisodiy afzalliklarning uyg'unligi Eronga o'tgan yillar va hozirgi kungacha deyarli barcha partiyalar va guruhlar, shuningdek, siyosiy, diniy va etnik guruhlar bilan bir vaqtda aloqalarni davom ettirgan yagona mintaqaviy kuchga aylanish imkonini berdi. Eron Afg'onistonning barcha harbiy-siyosiy guruhlar bilan doimiy aloqalarni qo'llab quvvatlashga intildi. Afg'onshunos ekspert siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori Suhrob Bo'ronov o'zining "Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati" kitobida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: Eron Islom Inqilobi Korpusi (EIHK) afg'on qochoqlaridan iborat "Fotimiyun" brigadasini tashkil etgan bo'lib, bu brigada Suriya, Iroq va Afg'onistonda Eron manfaatlarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi Brigada 20 000 ga yaqin askardan iborat bo'lib, asosan Eronda yashovchi afg'on qochqinlaridan iborat bo'lib, u EIHKning xorijdagi bo'limi Quds kuchlari qo'mondonligi ostida xizmat qiladi.[3] Qochoqlar masalasi ham Eronning Afg'onistonga ta'sir o'tkazish vositalaridan biri sanaladi. BMTning Qochoqlar bo'yicha agentligining 2023-yil mart oyida bergan hisobotiga ko'ra hozirgi kunda Eronda 3,3 million afg'on qochoqlari mavjud. Shulardan 267 000 nafari Afg'oniston pasporti egasi 360 000 afg'on rezidentlik ruxsatiga ega 2.6 million qochoq esa hujjatsiz. Taxminlarga ko'ra har kuni yana 2000 ga yaqin odam Eronga yo'l olmoqda. [4] Mazkur omil Tehronning afg'on qochoqlaridan Kobulga bosim o'tkazish va harbiy-siyosiy maqsadlarda foydalanish uchun yetarlicha sabab bo'lishi mumkin. Afg'oniston Eron uchun ahamiyatliligining yana bir geosiyosiy sababi shundaki "Tolibon" omili Suriya va Iroqda faollashgan, Afg'onistonda ham Tehron manfaatlariga xavf tug'diruvchi "ISHID" terroristik guruhiga qarshi kurashda muhim ro'l o'ynashi mumkin. So'nggi yillarda shia hazoralariga uyushtirilayotgan turli hujumlarda aynan terroristik guruhlar qo'li borligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2023-yil 8-noyabr kuni Kobulda shia hazoralari qarorgohi bo'lgan Dasht-e-Barchi tumanida avtobusga bo'lgan hujum natijasida 7 kishi halok bo'lgan va 20 kishi yaralangan. Bu hujumga javobgarlikni ISHID o'z zimmasiga oldi. [5] Afg'onistonda 6 millionga yaqin shia musulmonlari istiqomat qiladi ularning aksariyati hazoralardir. Shia musulmonlari va hazoralar o'nlab yillar davomida turli xil halokatli hujumlarga uchrab kelgan bu hujumlarni ISHID ning Xuroson yacheykasi o'z zimmasiga olmoqda. Ular ko'proq shialar boradigan masjidlariga hujumlar uyushtirishmoqda. Bu jihatdan Eron Tolibon bilan ularga qarshi kurashda hamkorlik qilishdan manfaatdordir.

Eron Islom Respublikasi Afg'onistonga nisbatan idealistik va mafkuraviy yondashuvlarni realizm va pragmatizm bilan uyg'unlashtirgan holda, etnik, til va diniy guruhlar o'rtasida muvozanatni saqlash, shia, hazora va tojiklarning mavqeini mustahkamlash va boshqa guruhlarining etnik hukmronligiga yo'l qo'ymaslik; IShID va Al-Qoida tomonidan olib kelinayotgan diniy ekstremizm tahdidini muvozanatlash va qaytarish va ularga qarshi kurashda Tolibon bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, energetika, tranzit va savdo sohalariga e'tibor qaratgan holda Afg'onistonni qayta tiklashda birgalikda faol ishtirok etish orqali raqobatdosh mintaqaviy va jahon kuchlari bilan munosabatlarda iqtisodiy muvozanatni yaratish harakatlarini amalga oshirmoqda. Eronning Afg'onistondagi siyosatining yana bir murakkab va bahsli jihati bu AQShning Afg'onistondagi maqsadlari va harakatlariga qarshi chiqishi bilan bog'liq. Bunga Eron va Qo'shma Shtatlar o'rtasidagi strategik raqobat va mafkuraviy tafovutlar ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda, Tehron Vashingtonning Yaqin Sharqning chekka hududlarida mavjudligi va ta'sirini ekzistensial tahdid deb biladi. Albatta, bularning barchasi to'liq yakdillik va boshqaruv tamoyillarida jiddiy kelishmovchiliklar yo'qligini yoki Tehron va Kobul o'rtasida raqobat va muammolarning yo'qligini anglatmaydi. Tomonlar majburiy qochqinlar, chegara daryolari va botqoq yerlari, shuningdek, Eronning Hilmand daryosidagi suvdan foydalanishi, konlarni qazib olish, transmissiya sohasidagi iqtisodiy kelishuvlarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga erishmagan. Hattoki Hilmand daryosidagi suvdan foydalanishda ikki davlat qurolli to'qnashuvgacha bordi. 2023-yilning 27-may kuni keskinlik kuchayib chegarada to'qnashdi, natijada ikki kishi halok bo'ldi. [6] Bunday vaziyatda Eronning umumiy siyosati Tolibonni tan olmay, ular bilan vaqti-vaqti bilan va cheklangan hamkorlikni davom ettirishdan iborat bo'lib qoladi. Afg'onistonda Tolibonning hokimiyatga qaytishini Eron Islom Respublikasi uchun imkoniyatlar va shu bilan birga tahdidlar yig'indisi sifatida ko'rish mumkin. Tehron rasmiylari nuqtai nazaridan qaraganda, hozirda imkoniyatlar tahdidlardan ustun turadi va bu yaqin kelajakda ham shunday bo'lib qoladi. Ayni paytda, Tolibon bilan munosabatlar va hamkorlikni barqarorlashtirish va institutsionalizatsiya qilish davri uzoq davom etgan ko'rinadi va uzoq muddatli o'tish davrida ishlar Tolibonni tan olinmasdan va rasmiylashtirmasdan turib, cheklangan hamkorlikdan nariga o'tmaydi. Tan olish masalasiga kelsak, Eron, albatta, Tolibonni tan olgan birinchi davlat bo'lmaydi va Tolibonga nisbatan xalqaro yondashuvlar ortidan ergashadi. Ikki tomonlama munosabatlarning kengayishi, shuningdek, Tolibonning tan olinishi Tehronning Afg'onistondagi ichki o'zgarishlarga oid muhim fikrlarni o'z ichiga olgan dastlabki shartlarini bajarishiga bog'liq bo'ladi. Eronning ajoyib geografik joylashuvi va tranzit afzalliklari, shuningdek, yumshoq kuch ham Afg'onistonga mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tish va

Afg'oniston xalqi va mintaqa mamlakatlari uchun xavfsizlik, barqarorlik va yanada farovonlikni ta'minlashga yordam berish uchun bunday mintaqaviy hamkorlik uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Afg'onistonning Eron tashqi siyosatidagi o'rni ko'p qirrali bo'lib, xavfsizlik, iqtisodiy, tarixiy va mintaqaviy masalalarni qamrab oladi. Eronning Afg'oniston bilan aloqalari ushbu omillarning murakkab o'zaro ta'siridan kelib chiqib, uning sharqdagi qo'shnisiga nisbatan yondashuvini shakllantiradi. Afg'onistonning Eron uchun strategik, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlikdagi ahamiyati ikki davlat o'rtasidagi barqaror va hamkorlik munosabatlarining muhimligini ta'kidlaydi. Eronning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosati ana shu ko'p qirrali omillar asosida shakllantirilib, ularning ikki tomonlama o'zaro munosabatlari chuqurligi va o'zaro manfaatlariga bog'liqligini ta'kidlaydi. Eron va Afg'oniston o'zlarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash va mintaqaviy barqarorlik va farovonlikka hissa qo'shishni maqsad qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. By Asha Sawhney. Unlocking Afghanistan's potential. Amazon web services April 2019. http://www.csis-website-prod.s3.amazonaws.com/s3fs-public/NewPerspectives_APRIL2019_Sawhney.pdf
2. **Author: Silvia Boltuc.** Exploring Iran-Afghanistan collaboration: Kabul's Pursuit of Trade Diversification. December 4 2023. <http://www.specialeurasia.com/2023/12/04/iran-afghanistan-cooperation/>
3. Bo'ronov.S. (2021) Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni rivojlantirishda O'zbekiston geosiyosati: Toshkent: EFFECT-D
4. By Farnaz Fassihi. Fatemiyoun: Iran's "Overlooked" Arm in Syria. Asharq Al-Awsat. 24 april 2024.
5. <https://english.aawsat.com/features/4865376-fatemiyoun-iran%E2%80%99s-%E2%80%98overlooked%E2%80%99-arm-syria>
6. [ISIL claims Kabul bus attack targeting Shia Muslims. 8 november 2023. https://www.aljazeera.com/news/2023/11/8/isil-claims-credit-for-kabul-bus-attack-targeting-shias](https://www.aljazeera.com/news/2023/11/8/isil-claims-credit-for-kabul-bus-attack-targeting-shias)
7. [By: Bahar MAKOOI. Iran and Afghanistan dispute Helmand water rights as climate change deepens crisis. 10 June 2023. https://www.france24.com/en/asia-pacific/20230610-iran-and-afghanistan-dispute-helmand-water-rights-as-climate-change-deepens-crisis](https://www.france24.com/en/asia-pacific/20230610-iran-and-afghanistan-dispute-helmand-water-rights-as-climate-change-deepens-crisis)